

PAPER

UMAR SAYFIDDIN VA ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA VIJDON MOTIVINING AKS ETISHI

Abdialimova Zarina Faxriddin qizi ¹, *

¹O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti doktoranti

* zarinkao70@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada turk adabiyotining yirik vakili Umar Sayfiddin va o'zbek adabiyotining zabardast hikoyanavisi Abdulla Qahhor asarlarida vijdon motivining badiiy talqini, obrazlar ruhiyatidagi ichki kurashlar, ijtimoiy-ma'naviy mas'uliyat masalalari qiyosiy tahlil qilinadi. Har ikki adib ijodida vijdonning shaxs ongidagi o'rni, ijtimoiy munosabatlarga ta'siri hamda konfliktlarni yechishdagi ahamiyati yoritiladi.

Key words:

vijdon motivi, axloqiy mas'uliyat, badiiy psixologizm, ichki kechinmalar, ruhiy ziddiyat, etik qadriyatlar, yozuvchi uslubi, konflikt va vijdon azobi, o'zini o'zi anglash, ma'naviy uyg'onish, realizm an'anasi, turk va o'zbek hikoyachiligi, xarakter yaratish mahorati, ijtimoiy-axloqiy muammolar.

Kirish

Turk hikoyachiligining mumtoz vakili, jurnalist va zobit Umar Sayfiddin 1884 yili Turkiyaning Belikesir shahrida dunyoga keldi. Avval Usmoniya maktabida, so'ngra harbiy bilim yurtlarida o'qigan Umarning ilk ijod mahsuli 1900 yili "Majmuai adabiyya"da chop etildi. 1906 yili Izmiridagi jandarm maktabiga o'qituvchi bo'lib ishga kirdi. Shu yillarda Izmirida chop etiladigan "Sebat", "Xizmat", "Sarbast" kabi gazetalarga maqolalar yozdi.

Umar Sayfiddin harbiy harakatlarda ishtirok etarkan, ijodni ham tark etmadi. 1911 yili "Yosh qalamkashlar" jurnalida uning "Yangi lison" nomli maqolasi imzosiz chop etildi. Maqolada milliy tilni asrab qolish, boshqa tillardan so'z olgandan ko'ra, uning milliy muqobillarini topish, adabiyotni xalq tiliga yaqinlashtirish kabi jiddiy masalalar ko'tarilgan edi. Uning "Bahor va qaldirg'ochlar", "Qo'zg'olish xabari", "Primo Turk bolasi", "Ont" va "Ishq to'liqini" kabi hikoyalari ham ayni shu jurnalda bosildi.

Leytenant Umar Sayfiddin 1912 yilda Bolqon

Compiled on: December 16, 2025.

Copyright: ©2025 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Humanities* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

urushida qatnashdi va Yanya yaqinida yunon armiyasiga asirga tushdi. “Pastkash”, “Mahdiy”, “Hurriyat Bayroqlari” nomli hikoyalarida asirlikdagi hayotini qalamga oldi. Bu hikoyalar “Xalqqa to‘g‘ri”, “Turk yurti” va “Zako” kabi jurnallarda nashr etildi.

Umar Sayfiddin hikoyalarining asosiy xususiyati — ijtimoiy va harbiy jarayonlar ta’sirida shakllanayotgan inson obrazi orqali vijdonning uyg‘onishini tasvirlashdir. Uning “Asilzadeler”, “Qizil jild”, “Primo Turk Çocuğu”, “Yalnız Efe” hikoyalarida vijdon milliy va shaxsiy mas’uliyat sifatida talqin etiladi.

Bir yillik asirlikdan so‘ng, 1913 yili Istanbulga qaytdi va harbiylikni tashlab, “Turk So‘zi” jurnaliga muharrirlik qila boshladi. 1914 yildan umrining oxirigacha Kabatash maktabida adabiyotdan dars berdi.

Umar Sayfiddin 1920 yili 36 yoshida qand kasalidan vafot etdi. XX asr boshlarida turk va o‘zbek adabiyotida millatni uyg‘otish, jamiyatni isloh qilish g‘oyalari kuchaygan davrda vijdon kategoriyasi badiiy tafakkurning markaziy tushunchalaridan biriga aylandi. Umar Sayfiddin va Abdulla Qahhor hikoyalarida insonning ichki mas’uliyati, axloqiy tanlovi, o‘zini oqlash yoki aybini anglash jarayoni alohida poetik qiymat kasb etadi.

Abdulla Qahhor 1907 yil 17 sentyabrda Qo‘qon shahrida tug‘ilgan. O‘zbekiston xalq yozuvchisi (1967). O‘rta Osiyo Davlat universitetining pedagogika fakultetini tamomlagan (1930). Uning ilk «Oy kuyganda» (1924) hajviy she’ri Norin shilpiq taxallusi ostida «Mushtum» jurnalida bosilgan. Yozuvchi «Boshsiz odam» (1929) hikoyasini e’lon kilgach, umrining oxirigacha nasrda samarali ijod qilgan. Dastlabki hikoyalar to‘plami — «Olam yasharadi» (1935). Shundan so‘ng uning «Hikoyalar» (1935, 1936) to‘plamlari ketma-ket nashr etilgan. Bu davrda u «Sarob» (1935) romanini ham yozgan. «Qo‘shchinor chiroqlari» (1951) romani, «Sinchalak» (1958), «O‘tmishdan ertaklar» (1965), «Muhabbat» (1968) qissalari o‘zbek nasri taraqqiyotiga muhim hissa bo‘lib qo‘shilgan. U o‘zining «Shoxi so‘zana» («Yangi yer», 1949—53), «Og‘riq tishlar» (1954), «Tobutdan tovush» (1962), «Ayajonlarim» (1967) sahna asarlari bilan dramaturg sifatida ham

tanilgan. A. S. Pushkin, L. Tolstoy, N. V. Gogol, Chexov asarlarini o‘zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan.

Abdulla Qahhor 1968 yil 25 mayda Moskva shahrida vafot etgan.

Xamza nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti (1966) lauryati. Vafotidan so‘ng «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlangan (2000).

Abdulla Qahhor hikoyalarida vijdon realistik hayot detallarida, oddiy odamlar taqdirida namoyon bo‘ladi. “Sinchalak”, “Og‘riq tishlar”, “O‘tgan kunlarim”, “Qo‘shchinor chiroqlari” hikoyalarida qahramonlar kichik xatoni ham og‘ir ruhiy kechinmalar bilan qabul qiladilar.

Xulosa

Umar Sayfiddin va Abdulla Qahhor hikoyachilik maktabi o‘ziga xos badiiy tafakkur, chuqur psixologizm va ijtimoiy-axloqiy masalalarning badiiy talqini bilan ajralib turadi. Har ikki adib ijodida vijdon, mas’uliyat, axloqiy tanlov, ichki kurash kabi mavzular markaziy poetik kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq ular ushbu motivni turlicha badiiy-estetik yo‘nalishda yoritadilar.

Umar Sayfiddin hikoyalarida vijdon motivi ko‘proq milliy ong, jamiyat va shaxs o‘rtasidagi ziddiyat, zamon ruhi va ma’naviy tiklanish bilan bog‘liq holda talqin etiladi. Uning asarlarida keskin dramatik vaziyatlar, to‘qnashuvlar va qisqa, lo‘nda syujet orqali insonning ichki o‘zgarishi yorqin ifodalanadi. U har bir obrazning ma’naviy qarorida jamiyat ta’siri va tarixiy omillarni muhim o‘rinlarga qo‘yadi.

Abdulla Qahhor esa vijdon masalasini asosan shaxsning ichki olami, ruhi teranliklari, oddiy odam kechinmalaridagi tabiiylik va hayotiylik orqali yoritadi. U konfliktni tashqi voqelikdan ko‘ra, inson qalbida kechuvchi sezilmas, lekin kuchli psixologik jarayonlar orqali ko‘rsatadi. Qahhor uslubiga xos satira, yumor va realistik kuzatuvlar vijdon motivining yanada tabiiy va ta’sirchan chiqishiga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Қаҳҳор, А. Танланган асарлар. — Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.

2. Қахҳор, А. Ҳикоялар. – Тошкент: Шарқ, 2005.
3. Ömer Seyfettin. Öyküler. – İstanbul: Yapı Kredi Yayınları, 2018.
4. Ömer Seyfettin. Seçme Hikâyeler. – Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları, 2012.
5. Çetişli, İ. Ömer Seyfettin'in Hikâyelerinde Tematik Yapı. – Ankara: Akçağ Yayınları, 2000.
6. Kaplan, M. Hikâye Tahlilleri. – İstanbul: Dergâh, 1997.
7. Parlatır, M. Ömer Seyfettin'in Eserlerinde Ahlak ve Toplum. – İstanbul Üniversitesi Yayınları, 2002.
8. Uyanık, M. Ömer Seyfettin'in hikâyelerinde milli-manevi değerler. – İstanbul: Türk Edebiyatı Vakfı, 2010.
9. Усмонов, А. Абдулла Қахҳор бадиий маҳорати. – Тошкент: Фан, 1988.
10. Қўшжонов, М. Ўзбек насри тараққиёти ва Абдулла Қахҳор ижоди. – Тошкент: Фан, 1979.
11. Расулов, Р. Абдулла Қахҳор ҳикоячилигида психологизм. – Тошкент: ЎзМУ, 2015.
12. Хўжойбердиева, З. Қахҳор ҳикояларида характер яратиш техникалари. – Тошкент: ЎзРФА, 2021.
13. Fromm, E. Man for Himself: An Inquiry into the Psychology of Ethics. – London: Routledge, 2003.
14. Freud, S. The Ego and the Id. – New York: W.W. Norton, 1990.
15. Kohlberg, L. Essays on Moral Development. – San Francisco: Harper Row, 1984.